



**ZAMONAVIY JAMIYATDA CHET TILINI O'QITISHDA INNOVATSION
METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI**

Umida Xayrullayeva

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada globallashuv davrida chet tillarini o'qitishdagi zamonaviy usullarning ahamiyati va samarasi yoritilgan. Maqolada texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'quv jarayonining afzalliklari hamda o'quvchilarning motivatsiyasiga ta'siri tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *chet tili, innovatsion metodlar, kommunikativ yondashuv, o'quv jarayoni, globallashuv, mashqlar sistemasi.*

Bugungi kunda dunyo miqyosida ta'lim tizimi tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Globallashuv jarayoni insonlardan bir necha tilni bilishni talab qilmoqda. Chet tillarini bilish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyat taraqqiyotining ham muhim omilidir. Shu bois, chet tili ta'limi sohasida innovatsion metodlardan foydalanish zarurati ortmoqda. Zamonaviy usullar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, ularni faollikka chorlaydi va o'rganilgan bilimni amaliyotda qo'llash imkonini yaratadi.

Chet tilini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish — bu dars jarayoniga yangi yondashuvlarni, axborot texnologiyalarini va interaktiv vositalarni tatbiq etishdir. Bunday yondashuv o'qitish samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning o'z fikrini mustaqil ifoda etishga o'rgatadi. Jamol Jalolov o'zining 'Chet tili metodikasi' asarida chet tili o'rganishni mashqlar bajarishdan iborat jarayonligini ta'kidlaydi va o'qitish tizimida 'Mashqlar sistemasi'ni qo'llashni samarali deb hisoblaydi. O'zbekiston chet tili metodistlarining (J.Jalolov, T.Sattorov, A.Soyunazarov) 1970-1980 yillarda bajargan ilmiy tadqiqotlarida chet tili mashqlar sistemasini o'zbekcha terminlar bilan shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi mashqlar turlariga bo'linishi aniqlangan. Shuningdek, kommunikativ yondashuv ham o'quvchilarda tildan amaliy foydalanish ko'nikmasini rivojlantiradi. Bu metod orqali o'quvchilar tilni faqat nazariy emas, balki muloqot vositasi sifatida o'rganadilar. Shu bilan birga, 'project-based-learning' (loyiha asosida o'qitish) usuli o'rganuvchilarni ijodiy fikrlashga, mustaqil izlanishga undaydi.

N.L. Bim metodikaning asosiy obyektiga o'quv fanlari bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi dastur, darslik, o'quv qo'llanmalar va o'qitish jarayonining tashkiliy shakllarini kiritadi. Qolaversa, o'qitish mobaynida 'flipped classroom' metodikasini qo'llash o'rganuvchilarga o'quv video, podkast yoki onlayn modullardan foydalanish imkoniyatini taqdim etib, ularga asosli tushunchalarni oldindan tushunishga yordam beradi. Dars jarayonida o'qituvchilar mazmunli o'zaro aloqalarni osonlashtirish, shubhalarga aniqlik kiritish, individuallashtirilgan yo'l-yo'riq ko'rsatishga e'tibor qaratadilar. O'zbekiston



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli „Ta’lim muassasalarida chet tillarini o’qitishning sifatini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi qarorida ham til o’rgatish sistemasida shu va shunga o’xshash metodlarni hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish taqozo etilmoqda. Bugungi kunda raqamli ta’lim platformalari- Duolingo, Kahoot, Quizlet va sun’iy intellekt asosidagi dasturlar (masalan, ChatGPT) chet tilini o’rganish jarayonini yanada qulaylashtirmoqda. Ushbu platformalar yordamida o’quvchi darsdan tashqari vaqtda ham o’z bilimini mustahkamlashi mumkin. Gamifikatsiya (O’yin elementlarini ta’limga kiritish) esa darslarni yanada qiziqarli va motivatsion qiladi. Zamonaviy ta’lim jarayonida o’qituvchi endi faqat ma’lumot yetkazuvchi emas, balki yo’lboshchi, motivator va hamkor sifatida namoyon bo’ladi. U innovatsion metodlar yordamida dars jarayonini boshqaradi, o’quvchilarning mustaqil fikrlashini rag’batlantiradi va ijodiy muhit yaratadi. Dars jarayoniga texnologik vositalarni jalb etish o’qituvchidan ijodkorlik, yangilikka ochiqlik va zamonaviy fikrlashni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion metodlar chet tilini o’qitish sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular o’quvchilarning bilim olishga bo’lgan qiziqishini kuchaytiradi, muloqot ko’nikmalarini rivojlantiradi va global dunyoda raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamol Jalolov — „Chet tili o’qitish metodikasi” (2020)
2. A.A.Haydarov „Tillar o’qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari” (2022) — o’quv qo’llanma
3. G’ulomova.G.M — „Chet tilini o’qitishda zamonaviy metodlar”
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli qarori